

Uzbekistan Airways uchuvchilarni ishga qabul qiladi

2023 21 Iyun

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi A320/321, Boeing 767 samolyotlariga havo kemasi komandiri va ikkinchi uchuvchilarni ishga qabul qilishini e’lon qilindi.

Nomzodlarga qo’yiladigan talablar:

1. A320/321, Boeing 767 havo kemalari uchun ruxsatnoma;
2. FA uchuvchisining amaldagi guvohnomasi (ATPL);
3. Amaldagi tibbiy guvohnoma (amal qilish muddati 6 oydan kam bo’lmagan);
4. ICAO 4 shkalasi va undan yuqori bo’lgan ingliz tili darajasi (amal qilish muddati 6 oydan kam bo’lmagan);
5. RNAV, RVSM, EDTO, FANS, CAT II ICAO parvozlariga ruxsatnoma;
6. 6 oydan ko’p bo’lmagan muddatda parvoz ishidagi tanaffus;
7. HKKlar uchun A320/321 turidagi havo kemalarda parvoz vaqti – kamida 1000 soat, ikkinchi uchuvchilar uchun – kamida 500 soat;
8. Guvohnomaning qonuniyligi to’g’risidagi ma’lumotnoma;
9. Nomzod yoshi 55 yoshgacha.

Hujjatlar quyidagi elektron pochtaga yuborilsin:

fd.commission@uzairways.com

Tanlov bosqichlari:

1. Suhbat;
2. ICAO shkalasi bo’yicha ingliz tili darajasini tekshirish;
3. Trenajyor sinov.

Shartnoma tuzish muddati - 12 oy, keyinchalik uzaytirish bilan.

- Tanlov ishtirokchilari tanlov o’tkaziladigan joyga va ortga qaytish uchun “Uzbekistan airways” AJ reystrariga aviachiptalar taqdim etiladi;

- HKK uchun oylik maosh 8000 AQSH dollaridan, ikkinchi uchuvchi uchun esa 3000 AQSH dollaridan boshlanadi;
- Mehnat ta'tili 45 ish kunigacha;
- Uchuvchi va oilasi uchun yilda bir marta chegirmali aviachiptalar beriladi;
- Karyerani rivojlantirish imkoniyati bor.

Eslatma: To'ldirishingiz va yuborishingiz kerak bo'lgan [ariza](#) ilova qilingan.